

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**BERDIYEV ABDUG‘ANI UMIR O‘G‘LI**

**5,6-DIALMASHINGAN-4-XLORTIYENO[2,3-d]PIRIMIDINLAR SINTEZI  
VA KIMYOVIY O‘ZGARISHLARI**

**02.00.03-Organik kimyo**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences**

**Berdiyev Abdug‘ani Umir o‘g‘li**

5,6-Dialmashingan-4-xlortiyeno[2,3-d]pirimidinlarning sintezi va kimyoviy o‘zgarishlari ..... 3

**Бердиев Абдугани Умир угли**

Синтез и химические превращения 5,6-дизамещенных-4-хлортиено[2,3-d]пиримидинов ..... 23

**Berdiev Abdugani**

Synthesis and chemical transformations of 5,6-disubstituted-4-chlorothieno[2,3-d]pyrimidines ..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 47

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMYIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**BERDIYEV ABDUG‘ANI UMIR O‘G‘LI**

**5,6-DIALMASHINGAN-4-XLORTIYENO[2,3-d]PIRIMIDINLAR SINTEZI  
VA KIMYOVIY O‘ZGARISHLARI**

**02.00.03-Organik kimyo**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K620 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzicps.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Elmuradov Burxon Jurayevich,**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdushukurov Anvar Kabirovich,**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Bozorov Xurshed Abdulloyevich,**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "10" sentabr soat 12.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48), e-mail [plant\\_inst@icps.org.uz](mailto:plant_inst@icps.org.uz), ixrv@mail.ru.

Dissertatsiya bilan O'simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (43 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail: nhidirova@yandex.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "23" avgust da tarqatildi.

(2024-yil 23-avgust dagi 8- raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.Sh. Sagdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, akademik

**N.K. Xidirova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, kimyo fanlari nomzodi,  
katta ilmiy xodim

**E.X. Botirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi  
kimyo fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyoda tibbiyot va qishloq xo‘jaligi sohasining dolzarb vazifalaridan biri yuqori samarali, xavfsiz va raqobatbardosh preparatlarni ishlab chiqishdir. Ushbu preparatlarni yaratishda muhim tadqiqotlardan biri birikma molekulasida faol funksional guruhlar yoki fragmentlar saqlagan maqsadli moddalarni sintez qilish va amaliy ahamiyatga ega modifikatsiya usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Bu yo‘nalishda, tarkibida farmakofor pirimidin geterohalqasi tutgan “amino ko‘priki” bisiklik gibril tiyenopirimidinlar kimyosi hamda farmakologiyasini tadqiq etish ham nazariy ham amaliy ahamiyatga molikdir. Mazkur birikmalar qatorida “nomzod” birikmalarni sintez qilish va ularning biologik faolligini aniqlash juda dolzarbdir.

Jahonda bisiklik tiyenopirimidinlar (TP) asosida yaratilgan preparatlar tibbiyot sohasida yallig‘lanish, saraton, mikroblar, viruslar va silga qarshi, shuningdek, antioksidantlar va markaziy asab tizimini himoya qilish vositalari sifatida keng ishlatilmoqda. Ta’kidlash lozimki, dissertatsiya ishining tadqiqot obyektlari (TP) hozirgi vaqtda dunyoda saratonga qarshi ishlatilayotgan – gefitinib, erlotinib, afatinib va kanertinib kabi preparatlarning tiofen halqali analoglari hisoblanadi. Shuning uchun, molekulasida farmakofor (pirimidin) halqa saqlagan potensial biologik faol tiyenopirimidinlarni maqsadli sintezi va modifikatsiyasini amalga oshirish, ularning tuzilishini zamonaviy usullar yordamida isbotlash, olingan birikmalarning biologik xossalarni aniqlash va istiqbolli “nomzod” moddalar asosida yangi, yuqori samarali preparatlarni yaratish juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> “Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari bilan ta’minlanishini yaxshilash” vazifalari belgilab berilgan. Mazkur yo‘nalishda, O‘simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan tabiiy va sintetik moddalar asosida qishloq xo‘jaligi va tibbiyot uchun samarali dori vositalari (uchqun, rozalin, nikamizolon, galantamin, dezoksipeganin, sitizin va b.) yaratilgan. Shuning uchun, 5,6-dialmashingan-4-xlor(gidrazinil)-TPlarning maqbul sintez usullarini ishlab chiqish, ularning nukleofil va elektrofil agentlar bilan reaksiyalarini tizimli o‘rganish, jarayonlarga ta’sir etuvchi asosiy omillarni va reaksiya qonuniyatlarini aniqlash, olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarni o‘rganish yangi va samarali dori vositalarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi “Respublikamizda 2019-2021-yillarda farmatsevtika sohasini jadal rivojlantirishning keyingi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5707-son farmoni, 2021-yil 13-fevraldagi “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4992-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tiyenopirimidinlar (TP) sintezi, modifikatsiyasi va biologik faolligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tgan asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida hozirgi vaqtda mazkur sinf birikmalari bilan izlanishlar jadal davom ettirilmoqda. Xususan, A.T. Mavrova, Sh. Taoda, B. Wilding, O.D. Vlasova, S. Bugge, J.W. De Schutter, N.S. Habib, J.L. Woodring, N.G. Haswani, L. Feize, Li Fei Nie, Z. Puterova, Eslam M.H. Ali, S.N. Milik, T.R. Rheault, V.P. Litvinov kabi xorijlik olimlar tiyenopirimidinlar sintezi, kimyoviy modifikatsiyasi va amaliyotda qo‘llanilishini tadqiq etish bilan shug‘ullanishgan. Yurtimizda mazkur yo‘nalish rivojiga X.M. Shaxidoyatov, N.D. Abdullayev, B.J. Elmuradov, B. Tashxodjeyev, B.A. Urakov, X.A. Bozorov, N.I. Mukarramov, I.S. Ortiqov va boshqalar o‘z izlanishlari bilan tiyenopirimidinlar sintezi, reaksiyalari va biologik faolligini aniqlashga o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Mazkur izlanishlarga qadar TP-4-onlar sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan, lekin, pirimidin halqasining 4-holatini faollashtirish va sintetik potensialini oshirish, olingan 4-xlor-hosilalarning nukleofil almashinish mahsulotlarini sintez qilish va ularning elektrofil reagentlar bilan reaksiyalarini amalga oshirish hamda olingan gibril molekullarning biologik faolligi to‘g‘risida adabiyotlarda ma‘lumotlar deyarli yo‘q. Shuning uchun, ushbu birikmalarning takomillashgan sintez usullarini ishlab chiqish, ularning maqsadli modifikatsiyalarini tadqiq etish, reaksiyalar borishiga va yo‘nalishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, “tuzilish - reaksiya qobiliyat - biologik faollik” o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rganish va yangi biologik faol moddalarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasidagi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №F-FA-2021-408 “Zamonaviy kross-birikish va geterosiklizatsiya reaksiyalari asosida molekulaga farmakofor fragmentlar kiritish qonuniyatlarini tadqiq etish” (2021-2024) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** dialmashigan 2-aminotiofen efirlari, tiyeno[2,3-d]pirimidin-4-onlar va 4-xlor(gidrazinil)tiyeno[2,3-d]pirimidinlarning takomillashgan sintez usullarini ishlab chiqish, ularni aminlar (diaminlar) va karbonil birikmalar bilan nukleofil almashinish hamda elektrofil birikish reaksiyalarini amalga oshirish, reaksiyalar borishiga va yo‘nalishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, sintez qilingan birikmalarning tuzilishi, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

2-aminotiofen efirlarini takomillashtirilgan Gevald reaksiyasi yordamida sintez qilish usullarini ishlab chiqish;

tadqiqotning asosiy obyektlaridan bo'lgan 5,6-dialmashigan TPlarning samarali sintezini amalga oshirish;

sintetik potentsiali yuqori 4-xlor-TPlarning maqbul sintez usullarini ishlab chiqish, reaksiya borishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

4-xlor-TPlarning birlamchi aminlar (benzilamin, triptamin alkaloidi) bilan nukleofil almashinish reaksiyalarini amalga oshirish;

5,6-dialmashigan 4-xlor-TPlarning ikkilamchi sintetik geterosiklik aminlar bilan reaksiyalariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;

“sitizin-tiyenopirimidin” gibril molekullarni olish usullarini ishlab chiqish va mahsulot unumiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

“benzotriazol-tiyenopirimidin” yangi gibril molekullar sintezini amalga oshirish va reaksiya yo'nalishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

4-gidrazinil-TPlar sintezini va ularning turli karbonil birikmalar bilan reaksiyalarini amalga oshirish, mahsulot turiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

4-xlor-TPlarning palladiy katalizatori ishtirokida boradigan Suzuki–Miyaura kross-birikish reaksiyalarini amalga oshirish, reaksiyalar borishiga ligandlar ta'sirini aniqlash;

sintez qilingan birikmalarning tuzilishini fizik-tadqiqot usullari yordamida aniqlash va ular orasidan biologik faol moddalar izlash.

**Tadqiqotning obyektlari** sifatida 2-aminotiofen efirlari, 5,6-dialmashigan TP-4-onlar, 4-xlor-TPlar, ularning aminlar va arilbor kislotalari bilan hosil qilgan nukleofil almashinish va kross-birikish mahsulotlari, 4-gidrazinil-TPlar, ularning kondensatsiya va geterosiklizatsiya mahsulotlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** dastlabki 2-aminotiofen efirlari (Gevald reaksiyasi), 5,6-dialmashigan TP-4-onlar, 4-xlor-TPlar, 4-gidrazinil-TPlarning takomillashgan sintez usullari, ularning birlamchi hamda ikkilamchi (tabiiy va sintetik) aminlar, aromatik aldegidlar, atsetilatseton, arilbor kislotalari ishtirokida yangi *amino*-hosilalar, “sitizin-TP”, “benzotriazol-TP”, “pirazol-TP” gibril molekullari, 4-arilidengidrazinil-TPlar va kross-birikish mahsulotlarining olinish usullari, reaksiyalar yo'nalishi va mahsulotlar turiga ta'sir etuvchi omillar, sintez sharoitlari, fizik-kimyoviy va biologik xossalarni aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Nozik organik sintez usullari, IQ-,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografiya (yupqa qatlamli (YuQX) va kolonkali (KX)) hamda biologik tadqiqot usullari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

4-xlor-TPlarning imidoil xlorid ( $\text{Cl}-\text{C}^4=\text{N}$ ) fragmenti uglerod atomi elektrofilligi ortishi natijasida aminlarning nukleofil hujumi aynan shu markazda sodir bo'lib, C-N bog'i saqlagan yangi aminobirikmalar hosil bo'lishi aniqlangan va reaksiya mexanizmi tavsiya etilgan;

ilk bor 5,6-dialmashigan 4-xlor-TPlarning triptamin (tabiiy alkaloid) bilan reagentlarning ekvimolyar nisbatdagi nukleofil almashinish reaksiyalari ekzosiklik *amino*-guruhning nukleofil hujumi bilan borishi va yuqori unumlar bilan “NH-ko'priki” yangi “triptamin-TP” gibril molekullar hosil bo'lishi aniqlangan;

ilk marotaba ikkilamchi geterosiklik aminlarning 5,6-dialmashigan 4-xlor-TPlar bilan reaksiyasi aminokomponent tuzilishiga qarab mono- va dialmashigan simmetrik

mahsulotlar hosil bo'lishi, polimetilen zanjirining  $(\text{CH}_2)_5 \rightarrow (\text{CH}_2)_3 \rightarrow (\text{CH}_2)_4$  qatorida dastlabki moddalar reaksiya faolligi va mahsulotlar unumi ortib borishi aniqlangan;

ilk bor tabiiy alkaloid sitizin va 5,6-dialmashigan 4-xlor-TPlarning nukleofil almashinish reaksiyalari turli erituvchilarda ( $\text{EtOH}$ ,  $\text{CCl}_4$ ,  $\text{C}_6\text{H}_6$ ) amalga oshirilgan, bunda  $\text{CCl}_4$  eng maqbul erituvchi ekanligi va yuqori unumlar bilan yangi "sitizin-TP" gibrid molekularlar hosil bo'lishi aniqlangan;

5,6-dialmashigan 4-gidrazinil-TPlarning aromatik aldegidlar bilan kislota katalizatorligida boradigan *nukleofil birikish-eliminatsiya* reaksiyalari natijasida yaxshi va yuqori unumlar bilan *E*-izomer shakldagi benzilidengidrazinil-TPlar sintez qilingan va mahsulotlar tuzilishi zamonaviy spektral usullar yordamida tasdiqlangan;

ilk bor gidrazin (binukleofil) fragmenti saqlagan TPlarning dikarbonil birikma (atsetilatseton) bilan reaksiyalari "*yashil kimyo*" sharoitida amalga oshirilib, mono- va bis-geterosiklizatsiya natijasida pirazol halqasi saqlagan yangi gibrid molekularlar hosil bo'lishi aniqlangan;

ilk marotaba tarkibida C-Cl bog'i saqlagan TPlar va fenilbor kislotaning Pd-katalizatorligida boradigan Suzuki-Miyaura *kross-birikish reaksiyalari* amalga oshirilgan va mahsulotlar unumiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqotning dastlabki obyektlari bo'lgan 2-aminotiofen efirlari va 5,6-dialmashigan TP-4-onlarni olish uchun takomillashgan Gevald reaksiyasi va termik halqalanish usullari tavsiya etilgan;

yuqori sintetik potensialga ega 5,6-dialmashigan 4-xlortiyeno[2,3-d]pirimidinlarni miqdoriy unumlarda sintez qilishning oson va qulay usullari ishlab chiqilgan;

5,6-dialmashigan 4-xlortiyeno[2,3-d]pirimidinlarning birlamchi (benzilamin, triptamin) aminlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari yordamida "NH-ko'priki" potensial faol gibrid molekularlar sintezining yuqori samarali usullari ishlab chiqilgan;

ikkilamchi geterosiklik aminlarning (piperidin, (metil)piperidinlar, morfolin, piperazin, benzotriazol) 4-xlor-TPlar bilan reagentlarning turli nisbatlarida reaksiyalari amalga oshirilib, mono- va bis-almashigan simmetrik "geteril-geteril" konyugatlar olish usullari yaratilgan;

sitizin alkaloidining 5,6-dialmashigan 4-xlor-TPlar bilan to'g'ridan-to'g'ri nukleofil almashinish reaksiyalarining turli erituvchilar ishtirokida maqbul sharoitlari aniqlangan, natijada "sitizin-TP" gibrid molekularlar sintezining oson va samarali usullari ishlab chiqilgan;

5,6-dialmashigan 4-gidrazinil-TPlarning karbonil birikmalar bilan katalitik sharoitdagi reaksiyalari natijasida sintetik potentsiali yuqori benzilidengidrazinil-TPlar va yangi "pirazol-TP" gibrid molekularini olish usullari tavsiya etilgan;

5,6-dialmashigan 4-xlor-TPlar misolida yangi C-C bog'i hosil bo'lishi bilan boradigan kross-birikish reaksiyalari yordamida p-elektronlarga boy, fluorofor "geteril-aril" konyugatlar sintez qilishning samarali usullari ishlab chiqilgan;

sintez qilingan birikmalar orasida mikroba va zamburug'larga qarshi, yuqori sitotoksik faollikka ega moddalar borligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy IQ,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromotografiya

(YuQX, KX), biologik va boshqa tadqiqot usullaridan olingan natijalar asosida ishonchli tarzda isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilk bor 5,6-dialmashigan TP-4-onlar, 4-xlor-TPlar va 4-gidrazinil-TPlarning nukleofil (birlamchi, ikkilamchi sintetik va tabiiy geterosiklik aminlar) va elektrofil (fosforoksixlorid, arilbor kislotalari, karbonil birikmalar) reagentlar bilan modifikatsiyalari tizimli tadqiq etilgan, natijada yangi C-N va C-C bog‘lari saqlagan aminobirikmalar, arilidengidrazinlar, geterosiklizatsiya va kross-birikish mahsulotlari hosil bo‘lishi zamonaviy usullarda isbotlangan, reaksiyalar borishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar (reagentlar tuzilishi va nisbati, erituvchi tabiati, reaksiya harorati va davomiyligi) aniqlangan va nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sintez qilingan birikmalar orasida mikroob va zamburug‘larga qarshi, yuqori sitotoksik faollikka ega moddalar borligi, shuningdek, 2-aminotiofen efirlari, 5,6-dialmashigan TP-4-onlar, 4-xlor-TPlar, 4-gidrazinil-TPlarning takomillashgan sintez usullari ishlab chiqilishi, maqsadli aminobirikmalar, 4-ariliden-gidrazinil-TPlar, “sitizin-TP”, “benzotriazol-TP”, “pirazol-TP” gibril molekular, kross-birikish mahsulotlarini olishning samarali usullari yaratilganligi, 4 ta birikmaning RTT natijalari xalqaro Kembridj markaziy kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilganligi, 90 ta birikmaning (65 tasi yangi) sintez usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotlar natijalarining joriy qilinishi.** 2-Aminotiofen efirlari, 5,6-dialmashigan TP-4-onlar, 4-xlor-TPlar, 4-gidrazinil-TPlarning takomillashgan sintezi, ulardan maqsadli aminobirikmalar, gibril molekular va kross-birikish mahsulotlarining olinishi, sintez qilingan birikmalarining tuzilishi va biologik xossalari aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

3-(5,6,7-trigidrosiklopenta[4,5]tiyeno[2,3-d]pirimidin-4-il)-1,2,3,4,5,6-geksagidro-8H-1,5-metanopirido[1,2-a][1,5]diazosin-8-on, 3-(5,6,7,8-tetragidrobzeno[4,5]tiyeno[2,3-d]pirimidin-4-il)-1,2,3,4,5,6-geksagidro-8H-1,5-metanopirido[1,2-a][1,5]diazosin-8-on, 3-(5,6-dimetiltiyeno[2,3-d]pirimidin-4-il)-1,2,3,4,5,6-geksagidro-8H-1,5-metanopirido[1,2-a][1,5]diazosin-8-on, 5-metil-4-(8-okso-1,5,6,8-tetragidro-2H-1,5-metanopirido[1,2a][1,5]diazosin-3(4H)-il)tiyeno[2,3-d]pirimidin-6-etilkarboksilatlarining RTT natijalari Kembridj markaziy kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan (The Cambridge Structural Database, <https://www.ccdc.cam>, CCDC: 2279685, 2279686, 2279687, 2279688). Natijada, bazaga kiritilgan moddalarga o‘xshash birikmalarni sintez qilish va ularning tuzilishini tavsiflash imkonini bergan;

5,6-dialmashigan-4-xlor(gidrazinil)tiyeno[2,3-d]pirimidinlar sintezi va kimyoviy o‘zgarishlarini o‘rganish natijalaridan №VA-FA-F-7-006 raqamli “Sulfonilmochevinalar, triazinlar va ularning geterosiklik analoglari qatorida selektiv pestitsidlarning yangi avlodini sintez qilishning fundamental asoslari” mavzusidagi fundamental loyihada 5,6-dialmashigan-4-xlor tiyeno[2,3-d]pirimidinlarning gidrazin gidrat bilan ta’sirlashishidan istiqbolli gidrazinlar sintez qilish va ularni karbonil birikmalar bilan reaksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali tegishli potensial faol *E*-izomer shakldagi arilgidrazinlar hosil bo‘lishi aniqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 28-martdagi 4/1255-697-son

ma'lumotnomasi). Natijada, 2,3-trimetilen-3,4-digidroksinazolin-4-tionning gidrazin gidrat bilan ta'sirlashishidan istiqbolli gidrazinlar sintez qilish va ularni karbonil birikmalar bilan reaksiyalariga muvaffaqiyatli qo'llash mumkinligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola respublika, 1 ta maqola xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Funksional almashingan tiyeno[2,3-d]pirimidin-4-onlarning sintezi, reaksiyalari va biologik faolligi”** deb nomlangan **birinchi bobida** mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning **“4-Almashingan tiyeno[2,3-d]pirimidinlarning olinishi, modifikatsiyasi va biologik faolligi”** nomli **ikkinchi bobida** tadqiqot natijalari keltirilgan.

**Gevald reaksiyasi orqali 2-aminotiofen efirlar sintezi.** 2-Aminotiofen efirlarining bir reaktorli ko'p komponentli sintez usuli Gevald va shogirdlari tomonidan (1961 y.) taklif etilgan va hozirgi vaqtgacha qo'llanilib kelinmoqda. Biz mazkur usulga qisman o'zgartirish kiritgan holda, ya'ni reaksiyalarni oltingugurt, siansirka etil efiri va ba'zi ketonlarning 1.1:1:1 nisbatdagi aralashmasini morfolin (1.1 ekv.) ishtirokida, absolyut etanolda yumshoq sharoitda qizdirish (45-50°C, 24 soat) orqali olib borildi va almashingan 2-aminotiofen efirlari (**1-6**) olindi (1-jadval):




**1-Jadval. Sintez qilingan 1-6-moddalarning ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari**

N <sup>o</sup>	Brutto formula	*R <sub>f</sub>	Suyuq. har., °C	Unum, %
1	C <sub>10</sub> H <sub>13</sub> NO <sub>2</sub> S	0.44	88-90	83
2	C <sub>11</sub> H <sub>15</sub> NO <sub>2</sub> S	0.47	115-116	88
3	C <sub>12</sub> H <sub>17</sub> NO <sub>2</sub> S	0.50	118-120	75
4	C <sub>9</sub> H <sub>13</sub> NO <sub>2</sub> S	0.46	90-91	85
5	C <sub>11</sub> H <sub>15</sub> NO <sub>4</sub> S	0.29	104-105	80
6	C <sub>10</sub> H <sub>13</sub> NO <sub>3</sub> S	0.30**	158-159	68

**Sistema:** \*geksan : etilatsetat – 5 : 1; \*\*geksan : etilatsetat – 3 : 1

**6-Birikmaning** <sup>1</sup>H YaMR spektrida (CDCl<sub>3</sub>) tiofen halqasining 2-holatidagi amino (NH<sub>2</sub>) guruhiga tegishli 6.62 m.u. sohada ikki protonli (2H, s) singlet, 4-holatdagi metil (CH<sub>3</sub>) guruhi hamda 5-holatdagi atsetil (CH<sub>3</sub>CO) guruhi metil guruhlari uchun mos ravishda 2.70 va 2.44 m.u. sohalarda har ikkalasi uchun ham uch protonli (3H, s) singletlar holida namoyon bo'ladi. Shuningdek, 3-holatdagi etoksikarbonil o'rinbosari tarkibidagi metil (CO<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>CH<sub>3</sub>) hamda metilen (CO<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>CH<sub>3</sub>) guruhlari vodorodlarining 1.38, 4.33 m.u. sohalarda uch protonli (3H, t, J=7.15) triplet va ikki protonli (2H, k, J=7.1) kvartet shaklidagi kimyoviy siljishlarga ega ekanligi aniqlandi.

**5,6-Dialmashigan tiyeno[2,3-d]pirimidin-4-onlar sintezi.** Tadqiqotlar davomida olingan murakkab efirlarning formamid bilan halqalanishi tufayli 5,6-dialmashigan tiyeno[2,3-d]pirimidin-4-onlar (**7-11**) sintez qilindi. Reaksiya moy hammomida, 150-160°C haroratda, 4 soat davomida ortiqcha olingan formamid ishtirokida olib borildi va yaxshi unumlar bilan kerakli birikmalar (**7-11**) olindi (2-jadval):




**2-Jadval. Olingan 7-11-birikmalarning ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari**

N <sup>o</sup>	Brutto formula	R <sub>f</sub> (benzol : metanol – 5:1)	Suyuq. har., °C	Unum, %
7	C <sub>9</sub> H <sub>8</sub> N <sub>2</sub> OS	0.36	216-218	76
8	C <sub>10</sub> H <sub>10</sub> N <sub>2</sub> OS	0.37	257-259	86
9	C <sub>11</sub> H <sub>12</sub> N <sub>2</sub> OS	0.40	218-220	71
10	C <sub>8</sub> H <sub>8</sub> N <sub>2</sub> OS	0.38	268-270	90
11	C <sub>10</sub> H <sub>10</sub> N <sub>2</sub> O <sub>3</sub> S	0.35	243-244	88

Moddalarning (**7-11**) tuzilishlari spektral usullar bilan tasdiqlandi. Xususan, **11**-birikmaning <sup>1</sup>H YaMR (DMSO-d<sub>6</sub>-CCl<sub>4</sub>) spektrida metil guruhlarning (5-CH<sub>3</sub>, 6-CO<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>CH<sub>3</sub>) signallari mos ravishda nisbatan kuchli – 2.84 m.u. sohada uch protonli (3H, s) singlet va 1.39 m.u. sohada esa (3H, t, J=7.1) uch protonli triplet holida, 4.31 m.u. da metilen guruhiga (6-CO<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>CH<sub>3</sub>) tegishli (2H, k, J=7.1) ikki protonli kvartet ko'rinishida namoyon bo'ldi. Pirimidin halqasidagi aromatik proton (H-2) esa 7.99 m.u. da bir protonli singlet (1H, s) shaklida namoyon bo'ladi, imino guruh (NH) protoni esa 12.49 m.u. da kuchsiz bir protonli singlet (1H, s) holida kimyoviy siljishga (KS) ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**5,6-Dialmashingan 4-xlortiyeno[2,3-d]pirimidinlar sintezi.** Aromatik yoki geterosiklik halqa karbonil guruhining kislorod atomini xlor atomiga almashirish fundamental va amaliy ahamiyatga ega sintonlar olishga imkon beradi. Adabiyotlarda bu tajribalar ortiqcha POCl<sub>3</sub> (qayn. har. ~105°C) va TEA ishtirokida olib borilgan. Biz reaksiyalarni qutbsiz erituvchilarning (CCl<sub>4</sub> va benzol) qaynash haroratida (77°C va 81°C), reagentlarni **7-11**:POCl<sub>3</sub>:TEA - 1:2:2 nisbatlarida amalga oshirdik (3-jadval):



**3-Jadval. Olingan 12-16-birikmalarning ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari**

№	Brutto formula	R <sub>f</sub> (geksan : etilatsetat – 5 : 1)	Suyuq. har., °C	Unum, %
<b>12</b>	C <sub>9</sub> H <sub>7</sub> ClN <sub>2</sub> S	0.75	103-104	96
<b>13</b>	C <sub>10</sub> H <sub>9</sub> ClN <sub>2</sub> S	0.77	111-112	97
<b>14</b>	C <sub>11</sub> H <sub>11</sub> ClN <sub>2</sub> S	0.76	61-62	92
<b>15</b>	C <sub>8</sub> H <sub>7</sub> ClN <sub>2</sub> S	0.70	118-119	90
<b>16</b>	C <sub>10</sub> H <sub>9</sub> ClN <sub>2</sub> O <sub>2</sub> S	0.73	117-118	96

Reaksiyalar 4 soat qaynatib olib borildi va yuqori unumlar (90-97%) bilan 4-xlor-TPlar (**12-16**) olindi. Ularning tuzilishi spektral usullar va RTT natijalari asosida isbotlandi. Xususan, IQ spektrlarda almashingan TPlardagi (**7-11**) karbonil guruhlariga (C=O) tegishli 1659, 1656, 1656, 1692, 1684 sm<sup>-1</sup> sohalarda yutilish chastotalarining 4-xlor-TPlarda (**12-16**) yo'qolganligini hamda C-Cl bog'iga xos yutilish chastotalari mos ravishda (sm<sup>-1</sup>): 758, 730, 712, 740 va 761 da namoyon bo'lishi sintez qilingan birikmalarning xlorli hosilalar ekanligini tasdiqlaydi. Natijada, C-Cl bog'li sintonlar - 4-xlor-TPlarning (**12-16**) maqbul sintez usullari yaratildi. **14-Moddaning** <sup>1</sup>H YaMR (CDCl<sub>3</sub>) spektrida 1.76 (C-6, C-8), 1.96 (C-7) m.u. sohalarda polimetilen zanjiri vodorodlariga tegishli to'rt (4H, m) va ikki (2H, m) protonli multipliet signallar, 3.37 va 2.98 m.u. sohalarda tiofen halqasi bilan tutashgan har ikkala 5, 9-CH<sub>2</sub> ga xos ikki protonli (2H, t, J=5.6; 2H, t, J=5.6) triplet signallar, hamda 8.71 m.u. da pirimidin halqasidagi azometin (N=CH) protoniga tegishli bir protonli (1H, s) singlet signallar aniqlandi.

**5,6-Dialmashingan-4-xlortiyeno[2,3-d]pirimidinlarning birlamchi aminlar ishtirokidagi maqsadli modifikatsiyalari.** Pirimidin halqasining 4-holatida "NH-ko'priqli" o'rinbosarlar saqlagan geterosiklik birikmalar orasida saraton hujayralariga qarshi biologik faol "nomzod" birikmalar ko'p uchraydi. Shu maqsadda, 4-xlor-TPlarni (**12-16**) tarkibida aromatik va geterosiklik fragment tutgan benzilamin va triptamin alkaloidi bilan nukleofil almashinish reaksiyalari olib borildi:



Reaksiya reagentlarning – **12-16**:benzilamin/triptamin:TEA – 1:1:2 nisbatdagi aralashmasini etanolda 6 soat qaynatib amalga oshirildi va “NH-ko‘priki” yangi gibrud molekularlar **17-21** (93-98%) va **22-26** (90-93%) miqdoriy unumlar bilan olindi (4-jadval).

4-Jadval. Olingan 17-26-birikmalarning ba’zi fizik-kimyoviy kattaliklari

№	Brutto formula	R <sub>f</sub> (benzol : metanol – 5 : 1)	Suyuq. har., °C	Unum, %
17	C <sub>16</sub> H <sub>15</sub> N <sub>3</sub> S	0.73	152-154	93
18	C <sub>17</sub> H <sub>17</sub> N <sub>3</sub> S	0.78	112-114	98
19	C <sub>18</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> S	0.77	95-97	95
20	C <sub>15</sub> H <sub>15</sub> N <sub>3</sub> S	0.69	164-166	94
21	C <sub>17</sub> H <sub>17</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub> S	0.81	129-131	95
22	C <sub>19</sub> H <sub>18</sub> N <sub>4</sub> S	0.42	177-178	92
23	C <sub>20</sub> H <sub>20</sub> N <sub>4</sub> S	0.40	183-185	93
24	C <sub>21</sub> H <sub>22</sub> N <sub>4</sub> S	0.49	167-168	93
25	C <sub>18</sub> H <sub>18</sub> N <sub>4</sub> S	0.42	154-155	90
26	C <sub>20</sub> H <sub>20</sub> N <sub>4</sub> O <sub>2</sub> S	0.58	144-146	92


Mazkur reaksiyalar nukleofilligi yuqori ekzosiklik birlamchi aminoguruhlar ishtirokida ketadi, nukleofilligi past bo‘lgan endosiklik aminoguruh (triptamin misolida) reaksiyada ishtirok etmaydi, 5,6-holatlardagi o‘rinbosarlar (elektronodonor va elektronoakseptor guruhlar, polimetilen halqalari) tabiati mahsulot unumiga sezilarli ta’sir etmaydi.



Olingan barcha birikmalarning tuzilishi IQ, <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektroskopiya va RTT (5-7-rasmlar) natijalari asosida to‘liq isbotlandi. **17-21**-moddalarning <sup>1</sup>H YaMR spektrlarida eng xarakterli KS lar sifatida barcha mahsulotlarda mavjud bo‘lgan, pirimidin halqasining aromatik (H-2) protonning 8.41-8.53 m.u. sohalardagi bir protonli singleti dastlabki mahsulotlarga (**12-16**) qaraganda biroz kuchli maydonga siljiganligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, C<sup>4</sup>-NH vodorodiga tegishli signalning 5.34-5.98 m.u. sohalarda bir protonli triplet shaklida ko‘rinishi, molekuladagi benzil guruhi metilen (CH<sub>2</sub>) vodorodlariga tegishli 4.81-4.85 m.u. sohalarda ikki protonli dublet, 7.34-7.37 m.u. sohalarda fenil (C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>) guruhi vodorodlari besh protonli multiplet shaklida namoyon bo‘lishi birikmalarning tuzilishini tasdiqlaydi.

**4-Xlortiyeno[2,3-d]pirimidinlarning ikkilamchi geterosiklik aminlar bilan reaksiyalari.** Tarkibida piperidin, morfolin va piperazin fragmentlarini saqlagan xinazolin hosilalari saratonga qarshi yuqori faollikka egadir, ularning tiyeno[2,3-d]pirimidinli analoglarini olish uchun 4-xlor-TPlarni (**12-16**) geterosiklik ikkilamchi aminlar - piperidin, 3-metilpiperidin, 4-metilpiperidin, morfolin va piperazin bilan modifikatsiyalari amalga oshirildi. Reaksiyalar turli sharoitlarda olib borildi, xususan, morfolin, piperidin va uning hosilalari (substratga nisbatan mo‘l miqdorda) bilan olib

borilgan tajribalarda maqbul erituvchi sifatida etanol tanlangan bo'lsa, piperazin bilan (substratga nisbatan 0.5 ekv miqdorda) amalga oshirilgan modifikatsiyalarda metanoldan foydalanildi. Barcha jarayonlar TEA (2 ekv) ishtirokida erituvchilarning qaynash haroratlarida 6-10 soat davomida qizdirish orqali amalga oshirildi:




**5-Jadval. Sintez qilingan 27-51-moddalarning ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari**

№	Brutto formula	R <sub>f</sub>	Suyuq. har., °C	Unum, %
27	C <sub>14</sub> H <sub>17</sub> N <sub>3</sub> S	0.36*	114-115	91
28	C <sub>15</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> S	0.40*	88-90	92
29	C <sub>16</sub> H <sub>21</sub> N <sub>3</sub> S	0.45*	127-128	85
30	C <sub>13</sub> H <sub>17</sub> N <sub>3</sub> S	0.76*	114-115	95
31	C <sub>15</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub> S	0.23*	180-182	97
32	C <sub>15</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> S	0.42**	137-138	88
33	C <sub>16</sub> H <sub>21</sub> N <sub>3</sub> S	0.45**	132-134	93
34	C <sub>17</sub> H <sub>23</sub> N <sub>3</sub> S	0.39**	157-159	87
35	C <sub>14</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> S	0.37**	144-145	94
36	C <sub>16</sub> H <sub>21</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub> S	0.47**	168-170	91
37	C <sub>15</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> S	0.44**	143-145	98
38	C <sub>16</sub> H <sub>21</sub> N <sub>3</sub> S	0.48**	138-139	92
39	C <sub>17</sub> H <sub>23</sub> N <sub>3</sub> S	0.50**	163-165	89
40	C <sub>14</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> S	0.36**	154-155	95
41	C <sub>16</sub> H <sub>21</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub> S	0.46**	192-193	94
42	C <sub>13</sub> H <sub>15</sub> N <sub>3</sub> OS	0.72*	90-92	78
43	C <sub>14</sub> H <sub>17</sub> N <sub>3</sub> OS	0.77*	94-96	88
44	C <sub>15</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> OS	0.76*	128-130	75
45	C <sub>12</sub> H <sub>15</sub> N <sub>3</sub> OS	0.65*	115-117	90
46	C <sub>14</sub> H <sub>17</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub> S	0.81*	91-92	88
47	C <sub>22</sub> H <sub>22</sub> N <sub>6</sub> S <sub>2</sub>	0.64***	293-294	68
48	C <sub>24</sub> H <sub>26</sub> N <sub>6</sub> S <sub>2</sub>	0.72***	301-302	72
49	C <sub>26</sub> H <sub>30</sub> N <sub>6</sub> S <sub>2</sub>	0.75***	308-310	51
50	C <sub>20</sub> H <sub>22</sub> N <sub>6</sub> S <sub>2</sub>	0.81***	294-296	74
51	C <sub>24</sub> H <sub>26</sub> N <sub>6</sub> O <sub>4</sub> S <sub>2</sub>	0.67***	331-333	76


**Sistema:** \*benzol : metanol – 5 : 1; \*\*geksan : etilatsetat – 5 : 1, \*\*\*benzol : metanol – 3 : 1.

Natijada, yuqori unumlar bilan yangi C-N bog'li mono- va bis-almashingan gibril birikmalar: **27-31** (85-97%), **32-36** (88-94%), **37-41** (89-98%), **42-46** (75-90%)


va **47-51** (51-76%) sintez qilindi (5-jadval). Birikmalarning (**27-51**) tuzilishi IQ,  $^1\text{H}$ ,  $^{13}\text{C}$  YaMR spektroskopiya va RTT asosida tasdiqlandi. Xususan, **29**, **44** va **47**-moddalarning  $^1\text{H}$  YaMR spektri tahlili quyida keltirilgan:



**29**-Birikmaning deyeriylangan piridin- $d_5$  erituvchisida olingan  $^1\text{H}$  YaMR spektrida 8.86 m.u. sohada pirimidin halqasining 2-holatidagi C-H vodorodining bir protonli (1H, s) singlet, 3.31 m.u. da piperidinil guruhidagi azot atomiga bog‘langan har ikkala metilen ( $\text{CH}_2$ ) guruhi protonlariga tegishli to‘rt protonli (4H, m) keng multiplet, 3.02, 2.79 m.u. sohalarda molekulaning 5 va 9-holatidagi har ikkala metilen ( $\text{CH}_2$ ) guruhi vodorodlariga tegishli ikki protonli (mos ravishda 2H, t,  $J=5.5$ ; 2H, t,  $J=5.5$ ) tripletlar, 1.79 m.u. da kondensirlangan siklogeptan halqasidagi 7- $\text{CH}_2$  protonlariga xos ikki protonli (2H, m) multiplet, 1.58 m.u. sohada molekuladagi 6 va 8- $\text{CH}_2$  hamda piperidinil fragmentining 3,4,5-holatlaridagi metilen guruhi ( $\text{CH}_2$ ) vodorodlariga oid umumlashgan o‘n protonli (10H, m) multiplet tarzidagi KS larni keltirish mumkin. Shuningdek, **29**, **31** va **44**-moddalar monokristallarining RTT natijalari (8-10-rasmlar) ularning tuzilishlarini to‘liq tasdiqlaydi:



**Sitizin, benzotriazol va almashingan 4-xlortiyeno[2,3-d]pirimidinlar asosida yangi gibril molekular sintezi.** Tiyeno[2,3-d]pirimidinlar asosidagi tadqiqotlarimizni yanada kengaytirish maqsadida benzotriazol va xinolizidin qatori (–)–sitizin alkaloidi ishtirokida yangi – “TP-sitizin” (**52-56**) va “TP-benzotriazol” (**57-61**) gibril molekular sintez qilindi:




**12-16** ning sitizin bilan 1.5:1 nisbatdagi aralashmasi 1.5 ekvivalent TEA ishtirokida turli erituvchilar: etanol, benzol va  $\text{CCl}_4$  da 6 soat qaynatish bilan amalga oshirildi va **52-56**-moddalar olindi (6-jadval):


**6-Jadval. 52-56-Moddalarning turli erituvchidagi unumi va ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari**

№	Brutto formula	R <sub>f</sub> (benzol : metanol – 5 : 1)	Suyuq. har., °C	Unum, %		
				EtOH	CCl <sub>4</sub>	C <sub>6</sub> H <sub>6</sub>
52	C <sub>20</sub> H <sub>20</sub> N <sub>4</sub> OS	0.26	183-185	84	86	84
53	C <sub>21</sub> H <sub>22</sub> N <sub>4</sub> OS	0.25	155-157	92	93	89
54	C <sub>22</sub> H <sub>24</sub> N <sub>4</sub> OS	0.27	143-144	86	85	83
55	C <sub>19</sub> H <sub>20</sub> N <sub>4</sub> OS	0.30	165-167	87	88	84
56	C <sub>21</sub> H <sub>22</sub> N <sub>4</sub> O <sub>3</sub> S	0.28	191-192	88	90	85


Sitizin bilan reaksiyalar etanolda amalga oshirilganda oz miqdorda oddiy efir tipidagi moddalar, benzolda smolalanish sodir bo'lishi sababli, reaksiyalar CCl<sub>4</sub> da olib borilganda mahsulotlar unumi biroz yuqori bo'lishi kuzatildi. Bu dastlabki 4-xlor-TP larni CCl<sub>4</sub> da yaxshi erishi bilan izohlanadi. Birikmalarning tuzilishi IQ, <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektroskopiya usullari yordamida to'liq isbotlandi. Birikmalarning (52-56) <sup>1</sup>H YaMR spektrlarida esa xarakterli kimyoviy siljishlar (m.u.) sifatida barcha mahsulotlarda mavjud bo'lgan pirimidin halqasidagi aromatik (C-H) protonning 8.7 sohadagi bir protonli singletini, sitizin asosi tarkibidagi tegishli sohalarda: alifatik (1.69-3.82) va aromatik (5.93-7.20) protonlarga xos bo'lgan kimyoviy siljishlarni keltirish mumkin. **52** (CCDC 2279685), **53** (CCDC 2279686), **55** (CCDC 2279687), **56** (CCDC 2279688) - moddalarning kristaldagi tuzilishlari mos ravishda 11-14-rasmlarda keltirilgan:




11-Rasm. 52-Moddaning kristaldagi tuzilishi.



12-Rasm. 53-Moddaning kristaldagi tuzilishi.



13-Rasm. 55-Moddaning kristaldagi tuzilishi.




14-Rasm. 56-Moddaning kristaldagi tuzilishi.

“TP-benzotriazol” (**57-61**) gibril molekularini sintez qilish maqsadida 1H-1,2,3-benzotriazol bilan 4-xlor-TPlarning (**12-16**) 1.5:1 nisbatdagi aralashmalarini 1.5 ekvivalent TEA ishtirokida, etanolda 6 soat qaynatish orqali amalga oshirildi va yaxshi unumlar bilan **57-61**-mahsulotlar olindi (7-jadval):


**7-Jadval. Sintez qilingan 57-61-moddalarning ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari**

№	Brutto formula	R <sub>f</sub> (gekstan : etilatsetat – 5 : 1)	Suyuq. har., °C	Unum, %
57	C <sub>15</sub> H <sub>11</sub> N <sub>5</sub> S	0.49	149-151	73
58	C <sub>16</sub> H <sub>13</sub> N <sub>5</sub> S	0.39	157-158	78
59	C <sub>17</sub> H <sub>15</sub> N <sub>5</sub> S	0.41	159-161	72
60	C <sub>14</sub> H <sub>11</sub> N <sub>5</sub> S	0.27	138-139	76
61	C <sub>16</sub> H <sub>13</sub> N <sub>5</sub> O <sub>2</sub> S	0.35	127-129	77


Olingan barcha moddalarning <sup>1</sup>H YaMR spektrlarida (m.u.) 7.42-7.47 va 7.59-7.63 sohalarda dubletlar dubletining dubleti (ddd) ko'rinishida bir protonli benzotriazol aromatik halqasiga tegishli signallar, 8.09-8.11 va 8.25-8.27 sohalarda ham ushbu aromatik halqaga mansub tripletlar-dubleti holatidagi kimyoviy siljishlarning, shuningdek, barcha moddalarda TP asosining 2-holatida joylashgan protonga xos bo'lgan 9.18 sohadagi bir protonli singlet signallar yangi gibril molekularning tuzilishini tasdiqlaydi. Olingan **57**, **58**, **59**- “TP-benzotriazol” gibril molekularning DMSO da o'stirilgan monokristallari tuzilishi quyida keltirilgan (15-17-rasmlar).



15-Rasm. 57-Moddanning kristaldagi tuzilishi.




16-Rasm. 58-Moddanning kristaldagi tuzilishi.



17-Rasm. 59-Moddanning kristaldagi tuzilishi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar natijasida sintetik organik kimyo uchun juda muhim bo'lgan, molekulasida yangi C(sp<sup>2</sup>)-N bog'i saqlagan gibrid molekularlar (**57-61**) yaxshi unumlar bilan sintez qilindi.

**4-Gidrazinil tiyeno[2,3-d]pirimidinlar sintezi va ularning turli karbonil birikmalar bilan reaksiyalari.** Molekuladagi galogen atomini binukleofil guruhga almashinishi sintetik potentsiali yuqori bo'lgan 4-gidrazinil mahsulotlarga olib kelishi va ularning turli karbonil birikmalar bilan modifikatsiyasidan biologik faol moddalarning sintez qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab, almashingan 5,6-dialmashingan 4-xlor-TPlar (**12-16**) bilan ortiqcha miqdorda olingan gidrazin gidratning TEA ishtirokidagi nukleofil almashinish reaksiyasi etanolning qaynash haroratida 6 soat qizdirish orqali olib borildi, natijada 4-gidrazinil mahsulotlar (**62-66**) yaxshi va yuqori unumlar (78-95%) bilan olindi:



Ta'kidlash kerakki, tarkibida o'rinbosar sifatida etoksikarbonil guruhi mavjud 6-etoksikarbonil-5-metil-4-xlor-TP (**16**) bilan olib borilganda etoksikarbonil guruhining ham gidrazin ta'sirida karbogidrazidga (**66**) aylanishi kuzatiladi. Bu esa ikki tomonlama reaksiyon qobiliyatga ega TPning digidrazidlari orqali yanada qiziqarli modifikatsiyalar olib borish imkoniyatini yaratdi. Reaksiyalar almashingan aromatik aldegidlar (1.2 ekv) bilan konsentrlangan HCl (32%) katalizatori ishtirokida 6 soat davomida etanolda qaynatish bilan olib borildi va *E*-izomer shakldagi TPning gidrazonlari (**67-83**) olindi. Tarkibida binukleofil (gidrazinil) guruhli birikmalarni

modifikatsiya qilishda ikki yoqlama elektrofil tabiatga ega reagentlar bilan geterosiklizatsiya reaksiyalarini amalga oshirish juda qiziqarlidir. 4-Gidrazinil hosilalarni (**62-66**) dikarbonil (atsetilatseton) birikma bilan reaksiyalari **62-65** : diketon - 1:1.2 va 1:2.5 (**66** misolida) nisbatdagi aralashmalari kons. HCl (32%) katalizatorligida distillangan suvda, 6 soat xona haroratida aralashirilgan holda amalga oshirildi (8-jadval).

**8-Jadval. Olingan 62-88-birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari**


№	Brutto formula	R <sub>f</sub>	Suyuq. har., °C	Unum, %
62	C <sub>9</sub> H <sub>10</sub> N <sub>4</sub> S	0.38*	119-121	82
63	C <sub>10</sub> H <sub>12</sub> N <sub>4</sub> S	0.39*	127-128	88
64	C <sub>11</sub> H <sub>14</sub> N <sub>4</sub> S	0.44*	129-131	78
65	C <sub>8</sub> H <sub>10</sub> N <sub>4</sub> S	0.41*	114-115	90
66	C <sub>8</sub> H <sub>10</sub> N <sub>6</sub> OS	0.29**	177-179	95
67	C <sub>19</sub> H <sub>20</sub> N <sub>4</sub> O <sub>2</sub> S	0.47*	219-220	83
